

# PREZIDENT MAKTABLARIGA 1 BOSQICH IMTIHONLAR

## PRESS-RELIZ

Joriy yilning 1-iyul kuni Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Prezident maktablarining 1 bosqich imtihonlari bo'lib o'tdi.

Ma'lumot uchun, Prezident maktablari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.02.2019- yildagi «Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4199-sonli Qaroriga binoan tashkil etilgan. Prezident maktablari dastlab 4 ta hududda – Nukus, Xiva, Namangan va Toshkent shaharlarida o'z faoliyatini boshladi. 2021-2022- o'quv yilidan e'tiboran yana 10 ta hududda Prezident maktablari ochilib, hozirda Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimida 14 ta Prezident maktabi faoliyat yuritmoqda.

2022-2023- o'quv yili uchun Prezident maktablariga hujjatlar qabuli joriy yilning 1-20- iyun kunlari onlayn shaklda ariza.piima.uz sayti orqali amalga oshirildi. Qabul jarayonlari davomida 1206 qisqa raqami - Call markazi tashkil qilindi. Call-markaz mutaxassislari tomonidan har kuni 08:00 dan 20:00ga qadar kelib tushayotgan savollarga doimiy tarzda javob berib borildi.

Bundan tashqari qabul yuzasidan telegram ijtimoiy tarmog'idagi piimasavollar\_bot orqali eng ko'p kelib tushgan savollarga mutaxassislardan javoblar olinib, ushbu javoblar ijtimoiy tarmoqlar orqali jonli bayonotlar tarzida e'lon qilib borildi.

**2022-2023- o'quv yilida Prezident maktablariga faqat 5-sinfga qabul bo'lib o'tmoqda.** Qabul jarayonlari 20-iyun kuni o'z nihoyasiga yetdi, tasdiqlangan jami arizalar soni **41930** tani tashkil etdi. Imtihonlar natijasiga ko'ra Prezident maktablariga jami **336 nafar o'quvchi** o'qishga qabul qilinadi.

Prezident maktablarida imtihonlar ikki bosqichda amalga oshiriladi. **Birinchi bosqichda** o'quvchilar matematika fanidan 30 ta topshiriqdan iborat test savollarini ishlashadi. Belgilangan vazifani bajarish uchun 60 daqiqa vaqt ajratiladi. Birinchi bosqich natijasiga ko'ra, qabul kvotasida belgilangan har bir maktab kesimida 480 nafar talabgorlar 2-bosqichda qatnashadi.

Ikkinchi bosqichda esa axborotni tahlil qilish va solishtirish qobiliyatini aniqlash bo'yicha – mantiq elementlari bo'lgan matematika fanidan – 40 ta masala, ingliz tilidan – 40 ta test ishlanishi talab etiladi.

Prezident ta'lim muassasalari agentligi va Cambridge Assessment International Education tashkiloti o'rtasida hamkorlik shartnomasi tuzilgan bo'lib, unga binoan Prezident maktablariga qabul imtihonlari mazkur tashkilot bilan hamkorlikda

o‘tkazilishi belgilab qo‘yilgan. Imtihon javoblari Cambridge Assessment International Education tashkilotining rasmiy veb-sahifasida e’lon qilinadi.

Imtihonda javobi belgilangan masalalar toifalarining har biri bo‘yicha eng yuqori ball to‘plagan talabgorga quyidagicha tartibda ustunlik beriladi, ya’ni:

C toifadagi savollar bo‘yicha yuqori ball to‘plaganlar;

B toifadagi savollar bo‘yicha yuqori ball to‘plaganlar;

A toifadagi savollar bo‘yicha yuqori ball to‘plaganlar;

Tug‘ilgan sanasi bo‘yicha (yoshroq nomzod tanlanadi).

Nomzodlar barcha toifadagi savollar bo‘yicha teng ball to‘plagan taqdirda, nomzodlar tug‘ilgan sanasi bo‘yicha saralanadi, bunda yoshroq nomzodga ustunlik beriladi. Agarda bu holatda ham tenglik saqlanib qolsa, qabul komissiyasi va ta’lim sohasida xizmat ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan xorijiy tashkilot tomonidan qo‘shimcha topshiriqlar beriladi.

Hozirgi kunda imtihonlarga tayyorgarlik jarayonlari amalga oshirilayotgan bo‘lib, imtihonlar usti yopiq binolarda o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Imtihonlar o‘tkaziladigan hududlarlar ilova qilinmoqda.